

Uzbekistan Airways Parijda Yevropa yo'nalishlarini rivojlantirish rejalarini taqdim etdi

2026 16 Sentabr

Uzbekistan Airways 15-17-sentyabr kunlari Parijda bo'lib o'tayotgan IFTM Top Resa 2026 xalqaro sayyohlik ko'rgazmasida ishtirok etmoqda. Bu yil O'zbekiston ko'rgazmada faxriy mamlakat – Country of Honour maqomida taqdim etilmoqda.



Aviakompaniya ishtirokidagi asosiy mavzulardan biri O'zbekiston va Yevropa o'rtasidagi tashuvlarni rivojlantirish bo'ldi. Uzbekistan Airways vakillari Yevropa sayyohlik kompaniyalari va agentliklari bilan uchrashuvlar o'tkazib, 2027-yil mavsumi uchun hamkorlik dasturlarini, O'zbekistonni sayyohlik yo'nalishi sifatida targ'ib qilish va O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi sayohat imkoniyatlarini kengaytirish masalalarini muhokama qildilar.



Aviakompaniyaning flotni yangilash bo'yicha rejalariga alohida e'tibor qaratildi. 2026-yilda Uzbekistan Airways yangi Airbus A321LR havo kemalarini yetkazib berishni kutmoqda. Samolyotlar zamonaviy salonlar, jumladan, to'liq gorizontal holatda ochiladigan Full Flat biznes-klass o'rindiqlari bilan jihozlanadi.



Yangi havo kemalaridan xalqaro yoʻnalishlarda, jumladan, Yevropa yoʻnalishlarida foydalanish rejalashtirilgan. Xususan, Toshkent va Parij oʻrtasidagi aviaqatnovlarda Airbus A321LRʻdan foydalanish imkoniyati koʻrib chiqilmoqda, bu esa yoʻlovchilarning qulaylik darajasini oshirish va aviakompaniyaning Fransiya bozorida mavqeini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Oʻzbekiston stendiga Oʻzbekiston Respublikasining Fransiya Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi Nodir Gʻaniyev hamda Fransiyaning kichik va oʻrta korxonalar, savdo, hunarmandchilik, turizm va xarid qobiliyati boʻyicha vaziri Serj Papan tashrif buyurdi.



Ko'rgazmaning rasmiy ochilish dasturida O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi raisi o'rinbosari Suhrobjon Bobokalonov ham ishtirok etib, "Sayohatning qadri" taqdimoti doirasida mamlakatning sayyohlik salohiyatini namoyish etdi.



“Biz Yevropa sayyohlik biznesining Uzbekistan Airways’ga ham, umuman O’zbekistonga ham qiziqishi ortib borayotganini ko’rmoqdamiz. Parijdagi muzokaralar hamkorlarning qo’shma loyihalarni rivojlantirishga va yevropalik sayyohlarga mamlakatimiz bilan tanishish uchun yangi imkoniyatlar taklif etishga tayyorligini”, – dedi Uzbekistan Airways’ning Fransiyadagi vakili Bohodir Dadamuxamedov.



IFTM Top Resa 2026 ko'rgazmasida ishtirok etish Uzbekistan Airways aviakompaniyasiga nafaqat o'z rejalarini taqdim etish, balki O'zbekiston va Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi sayyohlar oqimini ko'paytirishga xizmat qiluvchi yangi hamkorlik aloqalarini o'rnatish imkonini beradi.